

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ ishchi-xodimlari va aholining turmushini yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar.



Ishchi-xodimlarning sog‘ligini tiklash uchun **191 ta** ishchi-xodimga sanatoriyaga **620 mln so‘m**lik yo‘llanma berilgan. Bundan tashqari jamiyat tasarrufidagi **12 o‘rinli** profilaktoriya **280 ta** ishchi-xodimga tibbiy yordam ko‘rsatildi.



Yozgi ta‘til davrida dam olish mavsumini mazmunli tashkil etish maqsadida jami **507 nafar** jamiyatning ishchi-xodimlari va tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj oilalar farzandlarini “Kimyogar” oromgohida dam olishlari tashkil etildi.



Korxonada ishchi-xodimlarning sog‘lom turmush tarziga rioya etishlari uchun **13 marotaba** sport musobaqalari o‘tkazilib, **215,0 mln so‘m**, shundan “DKZ”AJ tomonidan tashkillashtirilgan Dehqonobod tumani bo‘yicha futbol kubogi musobaqasiga **21,8 mln so‘m** pul mablag‘lari ajratildi.



“Tog‘aytemir” MFY aholi hamda yoshlari uchun sport anjomlari (brus, turnik) yetkazib berish va futbol maydoni qurish ishlarini amalga oshirish uchun **21,5 mln.so‘m**lik homiylik ishlari amalga oshirildi.



Korxonada bir qator madaniy-ma‘rifiy tadbirlar tashkil etildi. Jumladan, **6 marotaba** spektakl namoyish etildi, **13 marotaba** ko‘rik-tanlovlar o‘tkazildi, har oyda bir marotaba ma‘naviyat soati tashkil etildi, **7 marotaba** turistik sayohatlar, bayramlar sanalari munosabati bilan madaniy-ma‘rifiy tadbirlar tashkil etildi (buning uchun jami **1 050,8 mln. so‘m** miqdorida mablag‘ sarflandi).



Dehqonobod tumanidagi “Tog‘aytemir” va “Beshbuloq” MFYlar aholisini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash maqsadida sig‘imi **150 metr kubik** ichimlik suvi havzasi qurilib, foydalanishga topshirildi. Jamiyat mablag‘i hisobidan **110,8 mln.so‘m**lik homiylik ishlari amalga oshirildi.



Tumandagi “Tog‘aytemir” va “Beshbuloq” MFYlar binolarining qurilish ishlari uchun jamiyat mablag‘i hisobidan Dehqonobod tuman mahalla jamg‘armasiga **400,0 mln.so‘m** homiylik mablag‘i o‘tkazildi. Bundan tashqari MFYlardagi huquq-tartibot maskanlarida qurilish ishlari amalga oshirilib foydalanishga topshirildi.



Tumandagi “Mustaqillik” MFYdagi qabristonni ta‘mirlash uchun **2,6 mln.so‘m** va “Beshbuloq” MFYdagi qabristonni joriy ta‘mirlash uchun **11,8 mln.so‘m**lik homiylik yordami amalga oshirildi.



Kasaba uyushma qo‘mitasi tomonidan **701 nafar** ishchi xodimlarga sog‘liklarini tiklash uchun **546,3 mln so‘m** miqdorida moddiy yordam ko‘rsatildi va jamiyatda ishlab nafaqaga chiqqanlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida **1,37 mlrd. so‘m** xarajat qilindi.